

**SURXONDARYO VILOYATIDA AGROSANOAT MAJMUASINIG HUDUDIY TARKIBI VA
RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARINI IQTISODIY GEOGRAFIK TAHLIL QILISH**

Yo'Idoshev Tohirjon Mahmadali o'g'li

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti geografiya ta'lif yo'nalishi 4 - kurs talabasi.

Ziyodullayeva Gulmira Nurali qizi

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti geografiya ta'lif yo'nalishi 4- kurs talabasi

Qobilova Ro'zixol Raxmatulla qizi

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti geografiya ta'lif yo'nalishi 4 - kurs talabasi.

Dusmatov Fazliddin Kurbonali o'g'li

TerDU Tabiiy fanlar fakulteti geografiya ta'lif yo'nalishi 4 - kurs talabasi.

Annotatsiya: Maqolada agrosanoat majmuasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hajmuini oshirish xamda jaxon bozorlarida xaridorligi bo'lgan mahsulotlar eksport ko'lamini oshirish jihatlari yoritilgan.

Аннотация: В статье рассматривается одна из наиболее актуальных проблем, стоящих перед агропромышленным комплексом, - увеличение объемов производства, хранения и переработки пищевых продуктов и увеличение объемов экспорта продукции, востребованной на мировых рынках.

Abstract: The article examines one of the most pressing problems facing the agro-industrial complex - an increase in the production, storage and processing of food products and an increase in the volume of exports of products in demand on world markets.

Kalit so'zlar: agrosanoat majmuasining, agrar soha, ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari, korxona, qishloq xo'jaligi.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, аграрный сектор, производство, продукты питания, предприятия, сельское хозяйство.

Key words: agro-industrial complex, agricultural sector, production, food products, enterprises, agriculture.

КИРИШ

Ma'lumki mamlakat axolisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzlusiz ta'minlashda agrosanoat majmuasi muhim o'rinni egallaydi. Bugungi kunda agrosanoat majmuasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hajmuini oshirish xamda jaxon bozorlarida xaridorligi bo'lgan mahsulotlar eksport ko'lamini oshirish xisoblanadi. Bu vazifalarning hal etilishi ichki bozorlarimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va tarmoqning eksport salohiyatini oshirish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga imkon yaratadi, kimyo va ozuqa-yem sanoati tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilash, mahsulotlar turlarini diversifikatsiyalash, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish xamda tarmoqlarning raqobatbardoshligini mustaxkamlash borasida izchil chora

tadbirlar amalga oshirildi. Agrosanoat integratsiyasining mohiyati, zaruriyat va o'ziga xos xususiyatlari qishloq xo'jaligining evolyutsion tarixiy taraqqiyoti bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan barcha vositalarni o'zlarida ishlab chiqarib, tayyor mahsulot yetishtirganlari va bozorlarda sotganlari ma'lum. Shu bilan birgalikda ishlab chiqarish vositalari takomillashib borgani sari qishloq xo'jaligi uchun bu vositalarni taylorlab berishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari rivojiana boshladi. Keyinchalik qishloq xo'jaligiga servis xizmatlari ko'rsatish, mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash, tashish va iste'molchilarga yetkazib berish xam iqtisodning mustaqil sohalariga aylandi. Shu tariqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan mustaxkam aloqada va bir-biriga bog'lik bo'lgan iqtisodiy tarmoqlarining zanjirli tizimi vujudga keladi [2].

Ushbu ilmiy tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bevosita vizual kuzatuv asosida qishloq xo'jaligining joylashuvi, umumiy manzarasi o'rganilgan bo'lsa, viloyatning qishloq tumanlarini qishloq xo'jaligini, agrosanoat majmuasini rivojlanishi ko'rsatkichlari bo'yicha o'zaro taqqoslash va xulosalar olishda geografik taqqoslash usulidan, kartografik, ayniqsa statistika usulidan, Klaster va boshqa usullardan foydalanildi.

Surxondaryo viloyatida agrosanoat majmuasinig hududiy tarkibi va rivojlanishi xususiyatlarini iqtisodiy geografik tahlil qilish dissertasiya ishining bosh maqsadi hisoblanadi. Agrosanoat majmuasini shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, surxondaryo viloyatining agroiqilimiy resurslari va ularning xo'jalik ahamiyati, agrosanoat majmuasiga ta'sirini o'rganish, viloyat agrosanoat majmuasining tarmoqlar va xududiy tarkibini tahlil qilish, agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish salohiyatini hududiy tahlil qilish, viloyat agrosanoat majmuasining hududiy tarkibini yaxshilash va rivojlantirish istiqbollarini aniqlash iborat.

Tadqiqot natijalari. Surxondaryo viloyati sanoati mahsulotlarining 78%dan ortig'i yengil va oziq-ovqat tarmoqlarida yaratiladi. Viloyat qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari bo'yicha respublikada 7 o'rinni egallaydi va u bu turdagи mahsulotlarning 8,1 foizini beradi. Bunga asosan mazkur mintaqaning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashganligi sabab bo'lgan. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida zamonaviy ilmiy-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi serhosil navlar yaratish, mintaqa tabiiy sharoitiga to'g'ri keluvchi intensiv usullardan foydalinish asosida ushbu sohani rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Ma'lumki mamlakat axolisini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashda agrosanoat majmuasi muhim o'r'in egallaydi. Bugungi kunda agrosanoat majmuasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hajmuini oshirish xamda jaxon bozorlarida xaridorligi bo'lgan mahsulotlar eksport ko'lagini oshirish xisoblanadi. Bu vazifalarning hal etilishi ichki bozorlarimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish va tarmoqning eksport salohiyatini oshirish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga imkon yaratadi, kimyo va ozuqa-yem sanoati tarmoqlarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilash, mahsulotlar turlarini diversifikatsiyalash, chuqr tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish xamda tarmoqlarning raqobatbardoshligini mustaxkamlash borasida izchil chora tadbirlar

amalga oshirildi. Agrosanoat integratsiyasining mohiyati, zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari qishloq xo'jaligining evolyutsion tarixiy taraqqiyoti bosqichlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan barcha vositalarni o'zlarida ishlab chiqarib, tayyor mahsulot yetishtirganlari va bozorlarda sotganlari ma'lum. Shu bilan birgalikda ishlab chiqarish vositalari takomillashib borgani sari qishloq xo'jaligi uchun bu vositalarni taylorlab berishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari rivojiana boshladi. Keyinchalik qishloq xo'jaligiga servis xizmatlari ko'rsatish, mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash, tashish va iste'molchilarga yetkazib berish xam iqtisodning mustaqil sohalariga aylandi. Shu tariqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan mustaxkam aloqada va bir-biriga bog'lik bo'lgan iqtisodiy tarmoqlarining zanjirli tizimi vujudga keladi.

Surxondaryo viloyati ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etishda xom ashyo, iqlim va suv sharoiti, mehnat resurslari, transport omillarining o'rni katta. Mavjud omillardan samarali foydalanish natijasida mintqa iqtisodiy rivojlanishiga erishish mumkin. Viloyat xo'jaligining tarkibiy tuzilishini tahlili mintaqada rivojlanish darajasiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi tumanlar borligini ko'rsatdi. Jumladan, uning azaldan tarkib topgan tekislik qismida joylashgan, yirik ekin maydonlariga ega bo'lgan tumanlarida dehqonchilik va sanoatning asosiy korxonalari joylashgan bo'lsa, tog'li qismida chorvachilik, tog'-kon sanoati tarmoqlarigina rivojlangan [3].

Viloyat tumanlari orasida Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Oltinsoy, SHerobod tumanlari qishloq xo'jalik rayonlari hisoblanib, ushbu hududlarda qishloq xo'jalik yalpi mahsulotining yarmiga yaqini yaratiladi. Mintqa qishloq xo'jaligi tarmoqlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, bu yerda qishloq xo'jalik mahsulotlarining taxminan 70 foizi tekislik, 18 foizi adir va 12 foizi tog'li zonada yaratilmoqda. Xususiy mulkchilikning rivojlanishi qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklari salmog'i oshib borishiga sabab bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yaratilgan mahsulotlarning katta qismi Surxondaryo yengil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari uchun xom-ashyo bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda og'ir sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qila oladigan turli resurslar ham mavjud. Bular orasida mineral resurs xom-ashyosi katta ahamiyatga ega. Viloyatning yana bir asosiy mineral resurslaridan biri bu kimyoviy tuzlardir. Surxondaryoda fosforit, kaliy va osh tuzlarining katta zahirasi mavjud. Ushbu qazilma resurslar asosida kimyo sanoatini rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta bo'lsada, faqatgina Ko'hitang tog' yonbag'irlarida joylashgan Xo'jaikon tuz konigina xo'jalik ehtiyojlarida foydalanimoqda. Asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mintaqada mahalliy xom ashyo asosida soha uchun zarur bo'lgan kimyoviy o'g'itlar ishlab chiqarish imkoniyati borligiga qaramay, kimyo sanoati korxonalarini tashkil etish viloyatning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi [4].

Surxondaryoda fosforit, kaliy va osh tuzlarining katta zahirasi mavjud. Ushbu qazilma resurslar asosida kimyo sanoatini rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta bo'lsada, faqatgina Ko'hitang tog' yonbag'irlarida joylashgan Xo'jaikon tuz konigina xo'jalik ehtiyojlarida foydalanimoqda. Asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mintaqada mahalliy xom ashyo asosida soha uchun zarur bo'lgan kimyoviy o'g'itlar ishlab chiqarish imkoniyati borligiga qaramay, kimyo sanoati korxonalarini tashkil etish viloyatning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi [4].

Shuningdek, viloyat hududida marmar, granit, dolomit, kvarts qumi, ohaktosh, keramzit kabi qurilish materiallari xom ashyolari kelajakda qurilish materiallari sanoatining rivojlanishiga asos buladi. Bu borada hozirda ushbu soha bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar mavjud resurslarni to'liq o'zlashtirishni o'zida qamrab olmagan. Sherobod tumanida granit, gabbro, ohaktosh, tsementni qayta ishlash, Boysun, Uzun, SHo'rchi kabi tumanlarda g'isht ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda. Viloyatda marmarga ishlov berish, oyna ishlab chiqarish va boshqa soha tamoqlarining rivojlantirish imkoniyatlari bor

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 25 yanvardagi «Paxtato'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil yetishning zamonaviy shakllarini joriy yetish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 53-sonli qarori.
2. Murodov Ch., Xasanov Sh., Murodova M. Agroklasterlarni tashkil etishda Janubiy Koreya tajribasidan foydalanishning yo'nalishlari. Iqtisod va moliya. 2014 y. №3 41-42 b.
3. Boltayev B. Surxondaryo viloyati foydali qazilma resurslaridan foydalanish geografiyasi // Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. – Termiz, 2006. b. 140-141b.